

Afg'oniston bo'yicha konferensiya

Joriy yilning 26-avgust kuni "Afg'onistonda Rossiya va Markaziy Osiyo davlatlari imkoniyatlari" mavzuida onlayn-konferensiya bo'lib o'tdi. Tadbir O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti va "Valday" Xalqaro diskussiya klubi tomonidan tashkil etildi. Unda Rossiya va Markaziy Osiyo mamlakatlari ekspertlari ishtirok etdi.

Rossiya tomonidan – diplomatlar, "Valday" Xalqaro diskussiya klubi, Sharqiy Osiyo va SHHT tadqiqotlari markazi, Rossiya Tashqi ishlar vazirligining Moskva Xalqaro munosabatlar davlat instituti, Xalqaro tadqiqotlar instituti, Rossiyaning xalqaro ishlar bo'yicha kengashi tadqiqotchilari va olimlari ishtirok etdi. Qozog'iston xalqaro munosabatlar kengashi, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik tadqiqotlar instituti, Qirg'iziston Respublikasi Strategik tadqiqotlar milliy instituti, Tojikiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik tadqiqotlar markazi, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti, Xalqaro munosabatlar axborot-tahlil markazi vakillari Markaziy Osiyo ekspertlar hamjamiyati sifatida ishtirok etdi.

Tadbir davomida Afg'onistondagi vaziyatning rivojlanish istiqbollari, Rossiya va Markaziy Osiyo mamlakatlarining mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash masalalari bo'yicha fikr almashildi, Afg'onistonda tinchlik jarayonlari va mamlakatni mintaqaviy savdo-iqtisodiy aloqalarga integratsiyalash masalalari muhokama qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti direktorining birinchi o'rinbosari Akramjon Ne'matov tadbirida so'zga chiqib, Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni o'rnatish, uni iqtisodiy jihatdan tiklash keng Yevroosiyo makonida xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidladi.

Ekspert Afg'onistondagi vaziyatni siyosiy muloqot hamda afg'onlarning o'zi va afg'onlararo rahbarligi ostida inklyuziv tinch jarayonni amalga oshirish orqali tartibga solish mumkinligini qayd etdi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Afg'oniston Prezidenti Ashraf G'ani tashabbusi bilan 2018-yil mart oyida Toshkentda Afg'oniston bo'yicha tashkil etilgan xalqaro konferensiya bu borada siyosiy asos bo'ldi. Anjuman yakunida qabul qilingan Toshkent Deklaratsiyasi Afg'onistonda tinchlikni ta'minlash bo'yicha o'ziga xos strategiya bo'ldi.

A.Ne'matov Afg'onistonda uzoq muddatli va barqaror tinchlikka erishishda xalqaro hamjamiyat tomonidan Afg'oniston ichidagi tinch muzokaralarni uzluksiz qo'llab-quvvatlashning muhim ekanini qayd etdi.

Joriy yilning fevral oyida Doha shahrida AQSH va "Tolibonlar" harakati o'rtasida Tinchlik shartnomasining tuzilishi tinch inklyuziv muzokaralar jarayonining boshlanishida muhim qadamlardan biri bo'ldi. U Afg'onistonda yuz bergan 40 yillik urushni yakunlash bo'yicha tarixiy imkoniyatni berdi va afg'on muammosini harbiy yo'l bilan hal etish imkonsizligini yana bir bor tasdiqladi.

O'z navbatida, "Valday" Xalqaro diskussiya klubini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash jamg'armasi kengashi raisi Andrey Bistriskiy Rossiya va Markaziy Osiyo davlatlari manfaatlaridan kelib chiqqan holda Afg'onistondagi jarayonlarga nisbatan o'z qarashlarini bildirdi.

Andrey Bistriskiy Afg'onistonni tartibga solishda O'zbekistonning roli haqida gapirganda, uni Afg'oniston xalqi bilan madaniy-tarixiy aloqalar, geografik joylashuvi nuqtayi nazaridan qarab, muhim deb baholadi.

U O'zbekiston Afg'onistonni tartibga solish yo'lida juda ko'p ishlarni amalga oshirganini qayd etdi.

Tadbir ishtirokchilari mamlakatda vakuum yaralishiga yo'l qo'ymaslik, Afg'oniston hukumatining aholi oldidagi ijtimoiy majburiyatlarini bajarishi, fuqarolarning barqarorlik va xavfsizlik bo'yicha eng muhim ehtiyojlarini qondirishdagi salohiyatini saqlab qolish maqsadida xalqaro koalitsiyalar, AQSH va NATO harbiy kuchlarining olib chiqib ketilishining muhim ekanini qayd etishdi.

Mamlakat nizolardan keyingi davrda ham tinch taraqqiyotga erishishi uchun birlashgan xalqaro va mintaqaviy ko'makni rivojlantirish zarurligi qayd etildi.

Ekspertlar iqtisodiyotni rivojlantirishni Afg'onistonda barqaror va uzoq muddatli tinchlikni ta'minlashning zarur sharti deb qarab, Afg'onistonni urushdan keyingi tiklash bo'yicha xalqaro dastur ishlab chiqishning muhim ekanini qayd etishdi.

Shu bois, onlayn-uchrashuv ishtirokchilari mintaqa mamlakatlarining infratuzilma loyihalarini amalga oshirish, chegara oldi savdosi, avia, avtomobil va temiryo'l yuk tashuvlarini kengaytirish uchun qulay sharoitlar yaratish orqali Afg'oniston bilan savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish borasidagi sa'y-harakatlarini qo'llab quvvatladi.

Tadbirda qayd etilganidek, Afg'oniston bilan transport-kommunikatsiya va savdo-iqtisodiy hamkorlik qilish transmintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish, ushbu mamlakatda energetika, savdo, qishloq xo'jaligi, ta'lim, madaniyat sohalarida qo'shma loyihalarni amalga oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish uchun imkoniyatlarni ancha oshirishi mumkin.

Konferensiya ishtirokchilari bir ovozdan Afg'onistonni iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qo'shma dasturlar o'zaro hamkorlikni mustahkamlash, Yevroosiyoda barqaror taraqqiyot va farovonlikni kuchaytirish va Afg'onistonda uzoq muddatli tinchlikka erishish borasidagi manfaatdor tomonlar o'rtasida konsensusni yaratishda muhim omil bo'lib xizmat qilishi mumkin degan yakdil fikrni bildirdi.

Umuman olganda, virtual uchrashuv do'stona va konstruktiv ruhda bo'lib o'tdi va tadbir ishtirokchilariga Afg'onistonda uzoq kutilgan tinchlikni o'rnatish va mamlakat iqtisodiyotini tiklash masalalari bo'yicha fikr almashish hamda kelishilgan yondashuvlarni ishlab chiqish imkonini berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti va "Valday" Xalqaro diskussiya klubi "Hamkorlik to'g'risidagi kelishuv" doirasida hamkorlik qiladi, xususan ekspertlar almashinuvlari tashkil etiladi, tomonlarning tadbirlarida ishtirok etadi.

2019-yilda Samarqandda "Valday" Xalqaro diskussiya klubi tomonidan "Markaziy Osiyo va Yevroosiyo: global tartibsizlik tahdidlari oldida ko'p tomonlama hamkorlik" mavzuida X Osiyo konferensiya o'tkazilgan edi. Unda dunyoning 11 mamlakati, jumladan O'zbekiston, Rossiya, Xitoy, Germaniya, Yaponiya, Shvetsiya, Hindiston, Filippin, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistondan 80 nafardan ziyod nufuzli ekspertlar ishtirok etgan edi.

Manba